# JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

# JIZZAX VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2024-YIL YANVAR-NOYABR OYLARI
(DASTLABKI MA’LUMOT)



**Tel.: 72 221-51-13**
**www.jizzax.stat.uz**

# Jizzax viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*(2024-yil 1-dekabr holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 2 405 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 665 tasi (faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 27,7 % ni) Jizzax shahriga, 382 tasi (15,9 %) Sharof Rashidov tumaniga, 264 tasi (11,0 %) G‘allaorol tumaniga, va 253 tasi (10,5 %) Zomin tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.

| **Shahar, tuman nomi** | **2024-yil 1-dekabr holatiga korxonalar soni (birlik)** | | |
|---|---|---|---|
| | **Faoliyat ko‘rsatayotgan** | **Yangi tashkil etilgan** | **Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarda shahar, tumanlar ulushi,** %da |
| **Jami:** | **2405** | **901** | **100,0** |
| Jizzax shahri | 665 | 191 | 27,7 |
| *tumanlar:* | | | |
| Arnasoy tumani | 74 | 28 | 3,1 |
| Baxmal tumani | 131 | 88 | 5,4 |
| G‘allaorol tumani | 264 | 110 | 11,0 |
| Sharof Rashidov tumani | 382 | 109 | 15,9 |
| Do‘stlik tumani | 90 | 45 | 3,7 |
| Zomin tumani | 253 | 128 | 10,5 |
| Zarbdor tumani | 126 | 54 | 5,2 |
| Zafarobod tumani | 59 | 25 | 2,5 |
| Mirzacho‘l tumani | 72 | 27 | 3,0 |
| Paxtakor tumani | 117 | 36 | 4,9 |
| Forish tumani | 125 | 46 | 5,2 |
| Yangiobod tumani | 47 | 14 | 1,9 |





## Jizzax viloyati
## sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 24 401,1 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2023-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi  107,1% ni tashkil etdi.

**Yanvar-noyabr**
**mlrd.so‘m**






**Yanvar-noyabr**
**FHI, %da**




Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining besh yillik ko‘rsatkichlari o‘sish tartibida, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yildan yilga o‘sayotganligini ko‘rsatadi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Jizzax viloyatida 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 16 065,4 ming so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich aholi ehtiyojlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o‘sib borayotganini ko‘rsatadi.




Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xaridorgirligi va aholi talablariga mosligini baholash uchun ham biz sanoat mahsulotlarining aholi jon boshiga to‘g‘ri kelish ko‘rsatkichlarini hisoblab borishimiz kerak.

2024-yilning yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan sanoat mahsulotlari ko‘rsatkichlari shuni bildiradiki, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat mahsulotlariga nisbatan aholining ehtiyoji o‘sganligi hamda aholi sonining ham o‘sib borayotganligini bildiradi.






*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

## Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, **23 751,5** mlrd.so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **97,3 %** ni, tashkil etdi.

Hajmi, mlrd. so'm

| | | |
|---|---|---|
| B | Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | 171,9 |
| C | Ishlab chiqarish sanoati | 23 751,5 |
| D | Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash | 364,6 |
| E | Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish | 113,1 |





## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

## B seksiya

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **171,9** mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,7 %** ini tashkil etdi.



***Yanvar-noyabr***

| | |
|---|---|
| **2022-y** | 166,9 *mlrd. so‘m* |
| **2023-y** | 255,8 *mlrd. so‘m* |
| **2024-y** | 171,9 *mlrd. so‘m* |

**FHI, *%da***

| | |
|---|---|
| **2022-y** | 39,0% |
| **2023-y** | 140,9% |
| **2024-y** | 57,0% |

## C seksiya

## Ishlab chiqaradigan sanoat

2024-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **23 751,5** mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining **97,3 %** ini tashkil etdi.

***Yanvar-noyabr***

| | |
|---|---|
| **2022-y.** | 8 358,9 *mlrd. so‘m* |
| **2023-y.** | 16 992,8 *mlrd. so‘m* |
| **2024-y.** | 23 751,5 *mlrd. so‘m* |

**FHI, *%da***

| | |
|---|---|
| **2022-y.** | 110,5 % |
| **2023-y.** | 108,5 % |
| **2024-y** | 108,3% |



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

*(O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)*

| Mahsulot | 2024 | 2023 | 2022 |
|---|---|---|---|
| Paxta tolasi | 118,4 | 60,1 | 92,2 |
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni | 75,1 | 29,8 | 89,0 |
| Paxta linti | 130,7 | 45,8 | 127,0 |
| Paxta chigiti | 118,9 | 56,4 | 97,2 |
| Trikotaj polotnolar | 78,7 | 134,6 | 76,9 |
| O‘simlik yog‘i (tozalangan) | 3,1m. | 61,1 | 2,1m. |
| Yengil avtomobillar | 117,2 | 4,0 m. | 145,5 |
| Portlandsement | 87,7 | 122,5 | 121,3 |
| Paxtadan yigirilgan ip | 101,3 | 88,3 | 102,6 |

2024-yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 24,6 ming tonna paxta tolasi (2023-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 118,4 % ni tashkil etgan), 11,0 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (75,1 % ni), 37,9 ming tonna paxta chigiti (118,9 % ni) hamda 14,6 ming tonna o‘simlik yog‘i (tozalangan) (3,1 marta ga o‘sgan).









## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2023-yil yanvar-noyabr | 2024-yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Yengil avtomobillar (KIA,Chery,Haval,Lada) - dona | 23 991 | 28 108 | 4 117,0 |
| Paxta tolasi - tonna | 24 593,7 | 24 579,5 | - 14,2 |
| Yumshoq bug'doy va spelta uni -tonna | 14 716,4 | 11 049,1 | -3 667,3 |
| Paxta chigiti - tonna | 37 745,8 | 37 910,5 | 164,7 |

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida avtotransport vositalari, treyler, yarim tirkamalar ishlab chiqarish sohasining ulushi – 47,2 % (2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 120,2 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishining ulushi – 17,8 % (2023-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,5 %), Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi – 10,5 % (2023-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 98,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 10,1 % (2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 139,6 %)ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2023-yilning yanvar-noyabr oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 53,4 % (2023-yilning yanvar-noyabr oylarida – 54,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 16,5 % (2023-yilning yanvar-noyabr oylarida – 15,4 %) va quyi texnologiyalisi – 27,6 % (2023-yilning yanvar-noyabr oylarida – 26,5 %) ni tashkil etdi.



# Metallurgiya sanoati






Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida metallurgiya sanoati 44,3 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,2 % ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 20,3 % ni tashkil etgan.

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida metallurgiya sanoati 137,6 mlrd.so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,8% ni etib, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 122,7 % ni tashkil etgan.

# Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish






2024-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 10,5 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 98,1 % ga o‘sgan va ishlab chiqarish hajmi 2 567,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 12,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 124,1 % ni tashkil etgan.



# Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,9 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 143,1 % ga o‘sgan va ishlab chiqarish hajmi 2 421,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 97,0 % ni tashkil etgan.

## Ichimliklar ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 0,2 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 17,2 % ga o‘sdi va ishlab chiqarish hajmi 42,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi ulushi 0,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 116,8 % ga o‘sgan.




## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-noyabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 108,1 % ga ko‘paygan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 3 764,4 mlrd.so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 96,7 % ni tashkil etgan.




## Kiyim ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 %, fizik hajm indeksi 84,8 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 559,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 111,6 % ni tashkil etgan.



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish






2024-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,7 % ni, fizik hajm indeksi 59,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 425,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,2 % ni fizik hajm indeksi esa 126,3 % ni tashkil etgan.

## Mebel ishlab chiqarish






2024-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, mebel ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi 89,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 196,9 mlrd.so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni fizik hajm indeksi esa 114,5 % ni tashkil etgan.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish






2024-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi 81,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 328,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 % ni fizik hajm indeksi esa 93,9 % ni tashkil etgan.

## Elektr uskunalari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, ishlab chiqaradigan sanoatda elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 3,2 % ni, fizik hajm indeksi 106,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 772,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,4 % ni fizik hajm indeksi esa 138,5 ni tashkil etgan.




## Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 % ni, fizik hajm indeksi 223,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 671,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni fizik hajm indeksi esa 95,8 % ni tashkil etgan.




## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 47,2 %, fizik hajm indeksi 120,2 % ga o‘sdi hamda ishlab chiqarish hajmi 11516,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 47,8 % ni fizik hajm indeksi esa 110,2 % ni tashkil etgan.



**D seksiya**

## Elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2024-yil yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 364,6 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,5 % ini) tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 118,7 mlrd. so‘mga oshganligi kuzatildi.

**Yanvar-noyabr**

***2024-yil***

***2023-yil***

***FHI, %da***

| | Yanvar-noyabr | FHI, %da |
|---|---|---|
| 2024-yil | 364,6 mlrd.so‘m | 106,9 % |
| 2023-yil | 245,9 mlrd.so‘m | 72,3 % |

**D**



### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2023- yil yanvar-noyabr | 2024- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Elektr energiyasini uzatish bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m | 179 919,9 | 285 028,2 | 105 108,3 |
| Gazsimon yonilg‘ini quvurlar orqali taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m | 65 994,7 | 79 538,1 | 13 543,4 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 113,1 mlrd.so‘mni (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 0,5 %ini) tashkil etdi.

*2024-yil*

*2023-yil*

**Yanvar-noyabr**

*FHI, %da*

**113,1 mlrd.so‘m**

**74,5 mlrd.so‘m**




**98,4 %**

**100,6 %**

| Sanoat mahsulotlari | 2023- yil yanvar-noyabr | 2024- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Suvni yig‘ish, qayta ishlash va taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m, | 57 579,5 | 78 479,8 | 20 900,3 |
| Chiqindilarni yig‘ish, ishlov berish, yo‘qotish, utilizatsiya qilish bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m | 16 875,9 | 34 590,1 | 17 714,2 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig‘ish, qayta ishlash va taqsimlash bo‘yicha xizmatlar 11,7 % ga pasayishi kuzatildi, shuningdek chiqindilarni yig‘ish, ishlov berish, yo‘qotish, utilizatsiya qilish bo‘yicha xizmatlar 49,0 % ga oshganligi kuzatildi.

## Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 4 772,3 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 19,6 %ni tashkil etdi.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da**

**2023-yil yanvar-noyabr**




**2024-yil yanvar-noyabr**




**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi (mlrd.so‘m)da**

**2023-yil yanvar-noyabr**




**2024-yil yanvar-noyabr**



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 6 801,3 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 27,9 %ni tashkil etdi. Yillar kesimida taqqoslaganda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi o‘sib borayotganligini kuzatish mumkin. Ushbu ko‘rsatkich viloyatda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlariga aholining talabi o‘sib borayotganligini hamda eksport hajmi ko‘payotganligini bildiradi.

**Jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi,**
% da




**Kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi**
(mlrd.so‘m)




